

INTENSIFIKASIYA/DEINTENSIFIKASIYA SEMANTIKASINING LEKSEMA VA FRAZEMALAR SINONIMIK PARADIGMALARINI SHAKLLANTIRISHI

Ixtiyorov A'zamjon Avazjon o'gli,
QDU fakultetlararo tillar o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada intensivikasiya/deintensifikasiya sinonim frazemalar va variant frazemalar paradigmalarini shakllantirishga xizmat qilishi, sinonimlarni belgilashda so'zlarning ma'nodagi yaqinligiga qarab ish ko'rish qator chalkashliklarni keltirib chiqarishi, frazema va leksemalar orasidagi dastlabki farq ularning ifoda tomonida ekanligi hamda leksemalar, asosan, bir so'zdan, shuningdek, ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topishi mumkinligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: frazema, leksema, intensivikasiya, deintensifikasiya, gradual sinonim, sinonimik munosabat, sinonim frazemalar, variant frazemalar.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль семантики интенсификации/деинтенсификации в формировании парадигм синонимичных и вариантных фразем. Отмечается, что определение синонимов исключительно на основе смысловой близости слов может приводить к ряду неоднозначностей и ошибок. Также анализируется первоначальное различие между фраземами и лексемами, которое заключается в их плане выражения. Подчеркивается, что лексемы могут состоять преимущественно из одного слова, а также из двух и более слов.

Ключевые слова: фразема, лексема, интенсификация, деинтенсификация, градуальный синоним, синонимические отношения, синонимичные фраземы, вариантные фраземы.

Abstract. This article examines the role of intensification/deintensification semantics in the formation of paradigms of synonymous and variant phrasemes. It argues that identifying synonyms solely on the basis of semantic similarity may lead to a number of ambiguities and inconsistencies. The study also discusses the primary distinction between phrasemes and lexemes, which lies in their formal expression. Furthermore, it emphasizes that lexemes are generally composed of a single word, although they may also consist of two or more words.

Keywords: phraseme, lexeme, intensification, deintensification, gradable synonym, synonymic relation, synonymous phrasemes, variant phrasemes.

Kirish. Ma'lumki, frazemalar (frazeologik birliklar, iboralar) leksemalar bilan birgalikda lug'aviy sathni tashkil etadi. Frazema va leksemalar orasidagi dastlabki farq ularning ifoda tomonidadir. Leksemalar, asosan, bir so'zdan, shuningdek, ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topishi mumkin. Frazema bir so'zdan iborat bo'lmaydi. U kamida ikki so'zning birikishidan vujudga kelgan. Tarkib jihatdan leksemaning qo'shma (murakkab) so'z va frazema o'xshash, lekin ular o'z (qo'shma so'z) va ko'chma (frazema) ma'noga egaliklari bilan farqlanib turadi [3.24]. Shuningdek, qo'shma so'z qismlari orasiga so'z yoki shakl yasovchi affiks kiritib bo'lmaydi, ammo frazemaning orasiga boshqa so'z va qo'shimchalar kiritish mumkin: ko'ngli bo'sh, ko'nglim bo'sh, ko'nglim senchalik bo'sh emas kabi. Shuning uchun ham tilshunos olim Sh.Rahmatullayev frazemalarni leksikadan keyin emas, balki sintaksis bo'limidan so'ng yoritishni afzal ko'radi. Frazemalarga xos bo'lgan intensivikasiya/deintensifikasiya tavsifidan avval bu birliklar (frazemalarning) ma'no turlari haqidagi masalaga aniqlik kiritishga to'g'ri keladi [2.32].

Adabiyotlar tahlili. V.Vinogradov va uning izdoshlari frazemalarni ma'nosiga ko'ra uch turga ajratganlar: frazeologik butunlik, frazeologik qo'shilma, frazeologik chatishma. Bunda frazeologik butunlikka so'z birikmasining ko'chma ma'nosidan shakllangan (og'iz ochmoq – gapirmoq) frazeologik qo'shilmaga biri o'z ma'nosida, ikkinchisi ko'chma ma'noda qo'llanilishidan vujudga kelgan (gapning tuzi, yigitlarning guli) til birligi, frazeologik chatishmaga esa umumiy (yaxlit) ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ko'chma ma'nolari bilan bog'li bo'lmagan, tarkibidagi so'zlar ma'nosi bilan bevosita izohlab bo'lmaydigan lug'aviy birliklar sifatida qaragan. Keyingi davrda V.Vinogradov qarashlarini yoqlagan Sh.Rahmatullaev frazeologik qo'shilmani frazemalar sirasidan chiqardi. Bunga sabab frazeologik qo'shilmada ikki so'z (komponent) ma'nosi bilan bog'li ko'chma ma'noning mavjud emasligi, aslida bunda bir a'zoning polisemantik xususiyatga egaligi sabab bo'ladi. Biz ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaymiz. Shu bilan birga, frazeologik qo'shilma deb hisoblangan birlikda qisman frazemalar (frazeologik qo'shilma, frazeologik chatishma) o'xshashligi bor. [7.24]. Bu o'z ma'no va ko'chma ma'noli so'zlarning kishi xotirasida yaxlit holda (g'alabaniing kaliti, gapning tuzi) saqlanib turishidir. Ko'rinishicha, ayni shu juz'iy xususiyat o'z va ko'chma ma'noli so'zlar birikmasini ham frazemalar sirasiga kiritilishiga sabab bo'lganidir. Biz ham ushbu tadqiqotimizda intensivikasiya/deintensifikasiyaning frazeologik chatishma va qo'shilmalarda mavjudligiga e'tibor beramiz.

Intensifikasiya/deintensifikasiya sinonim frazemalar va variant frazemalar paradigmlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Biz variant frazemalar deyilganda, bir frazemaning turli shakl transformasiyalarini, ko'rinishlarini tushunamiz. Ular bir frazema tarkibida bir so'zni sinonim yoki yaqin ma'noli so'zlar bilan almashtirish, bir iborani turli shakl yasovchilar (asosiy ma'no, sememasi o'zgarmagan holda) qo'llanishini tushunamiz. Variant frazemalar yoki allofrazemalar bir obraz (tushuncha) asosida shakllangan bo'ladi. Sinonim iboralar esa turli obrazlar zaminida subyektiv baho (bo'yoq) ma'nodagi kuchli-kuchsizlik semalari asosida vujudga keladi [1.45].

Sinonimik munosabat nafaqat frazema va frazema, balki leksema bilan frazema orasida ham bo'lishi mumkin. Bunda leksema ma'noni me'yorda, frazema esa muayyan obraz orqali kuchli, yorqin ifodalaydi. Leksema va frazema orasidagi sinonimik munosabat sifat, ravish va fe'l so'z turkumlarida uchraydi. Har bir turkumdagi sinonimik munosabat muayyan semantik ko'lamga (guruhga) mansub bo'ladi [4.36]. Quyida leksema-frazemali sinonimiyani shu nuqtai nazardan tavsiflaymiz.

Shaxsning kayfiyati, sezgirlik holatini ifodalovchi leksema va frazemalar orasida intensivikasiya/deintensifikasiya asosida sinonimiya-ning shakllanishi: xursand – og'zi qulog'ida – o'z terisiga sig'may ketmoq – o'zini yettinchi osmonda his qilmoq (248 - bet); (xursand, xushvaqt, shod, xurram, xushnud, masrur, sarafroz, O'TSIL, 216 - bet) xafa – yuragiga qil sig'maydi (268 - bet); hushyor – yer tagida ilon qimirlasa biladigan, xomush – qovog'idan qor yog'adi (252 - bet).

Kishining ruhiy holatlari, fe'l-atvori, insoniylik (odamiylik) darajasi, mehnatga munosabati kabilarni ifodalovchi leksema-frazemalar-ning intensivikasiya/deintensifikasiya asosida sinonimiya hosil qilishi: mo'tadil (neytral) va ijobiy bo'yoq (konnotasiya) bilan: mard – yuragida yoli bor (268 - bet); uddaburon – yulduzni benarvon uradigan (287 - bet); saxiy – qo'li ochiq (301 - bet); sho'x – yerga ura ko'kka sakraydi (81 - bet); yuvosh – qo'y og'zidan cho'p olmagan (295 - bet); salbiy bo'yoq (qo'shimcha ma'no bilan): xasis – qishda qor so'rasa ham bermaydigan (252 - bet); mug'ombir – ilonni yog'ini yalagan (113 - bet); epashang – tepsa tebranmas (295 - bet); anqov – og'zing qani desa qulog'ini ko'rsatadigan (200 - bet); qo'rqqoq – quyon yurak (304 - bet); bo'shang – og'zidan oshini oldiradigan (190 - bet); landovur (hech bir ishni uddalay olmaydigan) – ammanni buzog'i (26 - bet). Lapashang, lavand (lavang), epashang, bo'shang, landovur, noshud, so'tak, bo'sh-bayov, latta (O'TSIL, 133 - bet).

Estetik baho ifodalovchi leksema-frazema munosabatida kuchli – kuchsizlik asosida sinonimlikning shakllanishi: chiroyli – bir qoshiq suv bilan yutib qo'yadigan (44 - bet); istarali – istarasi issiq, yulduzi issiq (115-bet). Jismoniy holat ifodalovchi leksema-frazema semantikasida intensivikasiya/deintensifikasiya orqali sinonimiyani vujudga kelishi: ozg'in – eti suyagiga yopishgan (262 - bet); kamquvvat – burnidan tortsa yiqiladigan, burniga chertsiz yiqiladigan (58 - bet); baquvvat – tog'ni talqon qiladigan (236 - bet).

Hayotni yaxshi bilmaslik, faoliyat malakasiga ega emaslikni anglatuvchi semantikada kuchaytirish orqali leksik-frazemik sinonimiya-ning hosil bo'lishi: tajribasiz – ona suti og'zidan ketmagan (201 - bet).

Kishilarning ijtimoiy tabiati, hamkorligini ifodalovchi: inoq – oralaridan qil o'tmaydi (193- bet); ahil – apoq -chapoq (28 - bet).

Aqliy holat va aql bilan amalga oshiradigan holatni ifodalovchi leksema, frazemalarda intensivikasiya/deintensifikasiya bilan sinonimiya hosil qilishi: tentak – miyasi aynigan (181 - bet); oson – xamirdan qil sug'urganday (247 - bet).

Duch kelish, uchratish holatini ifodalovchi leksema+frazemalarning kuchli-kuchsizlik asosida sinonimiya hosil qilishi: kamyob – anqoning urug'i (27 - bet).

Payt belgisini ifodalovchi leksema, frazemada intensivikasiya/-deintensifikasiya orqali sinonimiya tashkil etilishi: qadimiy – daqyonusdan qolgan, almisoqdan qolgan (28 - bet). Yuqorida fe'l kesimli gap shaklidagi frazemalar semantikasi asosidagi sinonimiyani kuchli-kuchsizlik belgisi nuqtai nazaridan alohida tavsiflagan edik. Endi so'z birikmasi shaklidagi tayanch so'zi fe'ldan iborat bo'lgan frazemalarga e'tibor qaratamiz. Hokim qismi fe'ldan iborat bo'lgan frazemalar, asosan, murakkab tushunchaga ega bo'lgan va shu asosda frazeologik ma'no shakllangan. To'g'ri, ko'p holatlarda fe'l kesim kengayib ketsa, garchi ega mavjud bo'lmasa ham, bu tipdagi konstruksiyalar gap shakliga yaqinlashib, o'xshab qoladi. Zero sodda gap turlari ichida bir bosh bo'lakli, to'liqsiz kabi ega ishtirok etmagan turlar ham mavjud [6; 54].

Xullas, gap shakl va soʻz birikmasi shaklidagi frazemalar mazmuni oʻzining salmogʻi, obraz miqdoriga koʻra farq qiladi. Quyida soʻz birikmasi shaklidagi frazemalarning intensivikasiya/deintensifikasiya vositasida sinonimik paradigmalari hosil qilishini ularning semantik koʻlami (turlari) misolida koʻrib chiqamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda intensivikasiya/deintensifikasiya semantikasining leksema va frazemalar sinonimik paradigmalari shakllantirishdagi oʻrnini aniqlash maqsadida tavsifiy, semantik-tahliliy hamda qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida oʻzbek tilidagi leksema va frazemalar tarkibidagi sinonimik munosabatlar, ularning kuchli-kuchsizlik darajalari hamda gradual maʼno xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, frazeologik va leksik birliklarning intensivikasiya hamda deintensifikasiya asosida hosil qilgan sinonimik qatorlari misollar yordamida oʻrganildi. Olingan natijalar lingvistik tahlil va umumlashtirish metodlari asosida ilmiy jihatdan baholandi.

Tahlillar va natijalar. Ular ijobiy va salbiy konnotasiyaga ega boʻlishi mumkin. Kishi ruhiy holatini ifodalovchi leksema va frazemalar semantikasining intensivikasiya/deintensifikasiya orqali sinonimiya hosil qilishi: xursand boʻlmoq – doʻppisini osmonga otmoq (77 - bet); xursand boʻlmoq – koʻngli togʻday koʻtarilmoq (152 - bet); yoqtirib qolmoq – yuragidan urmoq (269 - bet); sevinmoq – ogʻzining tanobi qochdi – ogʻzi qulogʻiga yetdi – boshi koʻkka yetdi (203 - bet); suyunmoq – yelkasidan togʻ qulamoq (78 - bet). Shuningdek, psixik holatning kuchsizlanishi va psixik holatga kuchsiz darajada ega boʻlmoq semantikalarida: tinchlanmoq – oʻpkasini bosib olmoq (284 - bet); mizgʻimoq – koʻzi ilinmoq (136 - bet).

Salbiy baho boʻyoqli ruhiy holat, jarayon ifodalovchi leksema, frazemalarning kuchli-kuchsizlik asosida sinonimiya hosil qilishi: uyaltirib qoʻymoq – yuzini yerga qaratmoq – uyat-nomusdan bosh koʻtara olmay digan boʻlib qolmoq (264 - bet); siqilib ketmoq – yuragi qon boʻldi – yurak bagʻri xun boʻldi (276 - bet); kuyinmoq – ichi achimoq – rahmi kelmoq (116 - bet); qoʻrqib ketmoq – kayfi uchmoq – kapalagi uchmoq (124 - bet).

Kishiga ijobiy baho berish, nomaqbul harakati uchun chora koʻrish harakatlarini ifodalovchi leksema, frazema semantikalaridagi intensivikasiya/deintensifikasiya orqali sinonimik qatorlarning vujudga kelishi: maqtamoq – koʻkka koʻtarmoq – koʻklarga koʻtarmoq (151-bet); jazolamoq – terisiga somon tiqmoq (227 - bet); jazolamoq – burnini yerga ishqamoq (57 - bet); jazolamoq - onasini uchqoʻrgʻondan koʻrsatmoq (192 - bet).

Shuningdek, turli semantik tur (guruh) larga kiruvchi: haydab yubormoq – dumini tugib yubormoq (71 - bet); tanqid qilmoq – poʻstagini qoqmoq (209 - bet); tuzalmoq – yostiqdand bosh koʻtarmoq (89 - bet); laqillatmoq – qoʻynini puch yongʻoqqa toʻldirmoq (209 - bet); yengmoq – bir choʻqishda qochirmoq (44 - bet).

Leksema, frazemalardagi sinonimik munosabat ham ulardagi kuchli-kuchsizlik konnotasiyasi asosida shakllangan. Intensifikasiya/deintensifikasiya asosida shakllangan leksema – frazema sinonimlar ravish soʻz turkumida ham uchraydi. Ish-harakatning

holatini bildiruvchi leksema, frazema semantikasida kuchaytirish ma'nosi sinonimik qatorni vujudga keltiradi: qo'qqisdan – tomdan tarasha tushganday (235 - bet); zimdan – yeng ichida (70 - bet); tez – oyog'i olti, qo'li yetti (188 - bet).

Leksema-frazema orasidagi sinonimik munosabat miqdor bildiruvchi leksema, frazema ma'nolaridagi kuchli-kuchsizlik ma'nolari asosida ham bo'lishi mumkin: ozgina – ikki og'iz (70 bet); oz – daryodan tomchi (70 bet).

Shunday qilib, leksik sathdagi leksema, leksema va frazemalarning gradual antonimik, sinonimik va variant qatorlari tizimi tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning shakllanishida muayyan belgining kuchli-kuchsizlik, ortiq-kamlik darajalari ishtirok etgan. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, tillarda intensifikasiya/deintensifikasiya semantikasi leksik birliklar maxsus tizimini, ya'ni leksik paradigmasini shakllantira olishi umumlisoniy qonuniyatdir.

Xulosa. Lug'aviy sathning frazeologik birliklari guruhida frazemalarning gradual sinonimlar va variantlar paradigmasi shakllangan. Bular frazeologik belgi (sema) ning kuchli-kuchsizligi, ortiq-kamligi, to'liq-to'liqsizligi zaminida shakllangan bo'lib, ularning o'zlariga xos mavzu (semantik) guruhlari mavjud. Gradual sinonimlik frazema va leksema munosabatida ham mavjud. Bizning gradual antonimiya va sinonimiya haqidagi qarashlarimiz antonimiya va sinonimiya haqidagi qarashlarga muxim tuzatishlar va to'ldirishlar kiritadi hamda gradual lug'aviy birliklarni lug'atlarda o'ziga xos tarzda berilishini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования). – Л.: Просвещение, 1973. - 304 с.
2. Abdurahmonov G'.A. va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. II –qism. Sintaksis, Toshkent. "Fan", 1975, 612 b.
3. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. – Toshkent: Fan, 1995.132 b.
4. Bozorov O. Graduonimiyaning antonimiya va sinonimiyani shakllantirishdagi o'rni.// O'zbek tili va adabiyoti. 1996. №2 – B.62-64.
5. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.: Изд.акад наук, 1960. 446 с.
6. Nurmonov A, Maxmudov N, Sobirov A va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "Ilm Ziyo", 2015. 575 b.
7. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 405 б.
8. Ҳожиёв А.П. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 б.